

XALQARO HUQUQDA INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARINING KAFOLATLARI

Qo'ldosheva Marhabo Yusuf qizi

Namangan davlat universiteti Yuridik fakulteti yurisprudensiya
yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Email: marhaboqoldosheva2008@gmail.com

Bannayev Nurmuhammad

Ilmiy rahbar: PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17797986>

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro huquqda inson huquq va erkinliklarining kafolatlari, ularning huquqiy manbalari hamda himoya qilish mexanizmlari tahlil qilinadi. Insonning tabiiy va ajralmas huquqlarini ta'minlashda BMT tizimi, xalqaro sudlar va mintaqaviy tashkilotlarning vakolatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy global jarayonlar sharoitida inson huquqlarini himoya qilishning dolzarbligi va xalqaro hamjamiyat oldida davlatlarning majburiyatlari yuridik nuqtai nazardan asoslab beriladi.

Tayanch so'zlar: demokratiya, rezolyutsiya, yurisdiksiya, ombudsman, federativ, gumanitar, tabiiy huquqlar, deklaratsiya, xalqaro Bill, Xartiya, diskriminatsiya, genotsid.

GUARANTEES OF HUMAN RIGHTS AND FREEDOMS IN INTERNATIONAL LAW

Annotation: This article analyzes the guarantees of human rights and freedoms in international law, their legal sources, and protection mechanisms. It examines the roles of the UN system, international courts, and regional organizations in ensuring the natural and inalienable rights of individuals. The article also substantiates, from a legal perspective, the relevance of protecting human rights in the context of modern global processes and the obligations of states before the international community.

Keywords: democracy, resolution, jurisdiction, ombudsman, federal, humanitarian, natural rights, declaration, International Bill, Charter, discrimination, genocide.

ГАРАНТИИ ПРАВ И СВОБОД ЧЕЛОВЕКА В МЕЖДУНАРОДНОМ ПРАВЕ

Аннотация: В данной статье анализируются гарантии прав и свобод человека в международном праве, их правовые источники и механизмы защиты. Рассматриваются полномочия системы ООН, международных судов и региональных организаций в обеспечении естественных и неотъемлемых прав человека. Также обосновывается, с юридической точки зрения, актуальность защиты прав человека в условиях современных глобальных процессов и обязательства государств перед международным сообществом.

Ключевые слова: демократия, резолюция, юрисдикция, омбудсмен, федеративный, гуманитарный, естественные права, декларация, Международный билль, Хартия, дискриминация, геноцид.

Bugungi kunda butun jahon bo'ylab inson huquq va erkinliklarini himoya qilish masalasi dolzarb hisoblanadi. Chunki inson huquqlari ijtimoiy va gumanitar bilimlar tizimida markaziy o'rin egallaydi. Butun dunyo insonga tegishli ushbu tabiiy huquqlarni ta'minlaydi, buzilmasligini o'z nazoratiga olgan va ularni himoya qiladi. Birgina O'zbekiston Respublikasini misol qiladigan bo'lsam, faqatgina xalqaro tashkilotlarga tayanib qolmagan holda, inson

huquqlarini himoya qiluvchi milliy institutlar ham tashkil etilgan. Hozirgi zamonda inson huquqlarini himoya qilish davlatning oliy maqsadi hisoblanadi va so'nggi yillarda mamlakatimizda "Inson sha'ni va qadri-qimmati yo'lida" g'oyasini amalga oshirish borasida keng ko'lamli ishlar bajarmoqda. Ushbu maqolada esa inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash butun jahon miqyosida naqadar zarur ekanligi to'g'risida fikr yuritilgan.

Xalqaro huquq - tinchlik va hamkorlikni ta'minlash maqsadida xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi xalqaro shartnomalar, odat normalari hamda umum tan olingan tamoyillar yig'indisi hisoblanadi. Ya'ni bunda yer yuzidagi turli davlatlar tomonidan birga tinchlikni ta'minlash uchun qarorlar qabul qilinadi yoki shartnomalar tuziladi. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquqga kelsak, bu inson huquqlarini ta'minlashda davlatlar hamkorligini tartibga soluvchi tamoyil va me'yorlari bo'lgan xalqaro huquq tarmog'i hisoblanadi. Xalqaro huquqning bu tarmog'i BMT nizomi qabul qilingandan so'ng rivojlana boshladi. Inson huquqlarini himoya qilish, demokratiya - tinchlikning asosiy kafolatidir. Insonning mazkur tabiiy huquqlarini himoya qilishda turli xil xalqaro hujjatlar o'z o'rniga ega. Bu huquqlarni tabiiy huquqlar deb atashimizdan maqsad, inson huquqlari barchaga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi, tabiatan kelib chiqadi va muayyan davlatlar ularni tan olishi yoki olmasligiga bog'liq bo'lmagan prinsiplar hisoblanadi. Aslida tabiiy huquqlar nima ekanligi haqida ma'lumot beradigan bo'lsam, Fransiyada 1789-yilda qabul qilingan "Inson va fuqaro deklaratsiyasi"ning 2-moddasiga binoan, "Har bir siyosiy birlashmaning maqsadi — insonning tabiiy va ajralmas huquqlarini saqlashdir. Bu huquqlar: erkinlik, mulk, xavfsizlik va zulmga qarshilik qilishdir." ¹ Ya'ni yuqorida ta'kidlangan huquqlar insonning tabiiy huquqiga misol bo'ladi. Shu sababli, insonning tana rangi, qaysi millat yoki qaysi dinga e'tiqod qilishidan qat'iy nazar - barchasi teng. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 2-moddasida ham aynan shu masalaga ta'rif berilgan, ya'ni "Har bir inson irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mol-mulki, tabaqasi yoki boshqa holatidan qat'i nazar ushbu Deklaratsiyada e'lon qilingan barcha huquq va barcha erkinlikka ega bo'lishi zarur. Bundan tashqari, inson mansub bo'lgan mamlakat yoki hududning siyosiy, huquqiy yoki xalqaro maqomidan, ushbu hudud mustaqilmi, vasiymi, o'z-o'zini idora qiladimi yoki boshqacha tarzda cheklanganligidan qat'i nazar biror bir ayirmachilik bo'lmasligi kerak." ² Kofi Annan (BMT Bosh kotibi, 1997-2006) aytgani kabi " Inson huquqlari hech qaysi madaniyatga begona emas va barcha xalqlarga tegishlidir." ³ Bu ham Inson huquqlarini tabiiy ekanligining bir isboti. Bundan tashqari inson huquqlari umuminsoniy qadriyat hisoblanadi. Ya'ni barcha inson o'z huquq va erkinliklarini bilishi kerak va shu o'rinda atrofidagi insonlar ham xuddi o'zi kabi huquq erkinliklarga ega ekanligini unutmasligi lozim. Masalan, mashhur bokschi Muhammad Ali 1960-yilda AQSHda notenglik guvohi bo'lgan, ya'ni o'sha yili Italiyada o'tkazilgan Rim olimpiadasida chempionlikni qo'lga kiritgan Muhammad Ali AQSH bayrog'ini dunyo bo'ylab

¹ Muhamedov H.M. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi (Yangi davr davlati va huquqi). Darslik. III qism. Oliy o'quv yurtlarining yurisprudensiya yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun darslik / Mas'ul muharrir : O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, yuridik fanlar doktori, professor A.X.Saidov. -T.: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2018. - 341 bet, 98-b

² <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>

³ Davlat va huquq asoslari 10-sinf uchun darslik/ H.Tuychiyeva, A.Hakimov, O.Abdug'aniyev, O.Shernayev, M.Ahmedova. Toshkent. Respublika ta'lim markazi, 2023-128 bet

yuqoriga ko'targan va chempionlikdan keyin AQSHdagi yaxshi bir restoranga tamaddi qilish uchun kiradi. Ammo restoran xodimlari oq tanli bo'lmagani uchun unga xizmat ko'rsatishdan bosh tortishadi. Bu haqda bokschining o'zi intervyularidan birida eslab o'tgan. Shundan so'ng u o'z fikrini bildiradi, "Hamma insonlar teng yaratilgan. Hech kim boshqasidan ustun emas". Xuddi shunga o'xshash band, Fransiya inson va fuqaro deklaratsiyasining 1-moddasida ham uchraydi. Unda yozilishicha, "Kishilar erkin va huquqda teng bo'lib tug'iladilar va keyin ham erkin, huquqda tengliklaricha qoladilar. Ijtimoiy farqlar faqat umumning foydasiga asoslangan bo'lmog'i mumkin."⁴ Ijtimoiy farqlar bo'lishi mumkin faqat bu ham xalqning, aholining foydasiga bo'lishi kerakdir. Haqiqatda barcha insonlar teng huquqqa ega buni Nelson Mandella ham tasdiqlaydi, ya'ni "Inson huquqlarini rad etish ularning insoniyligiga qarshi chiqish demakdir". Demak, inson huquqlari hammamizga tegishlidir. Barchamiz insonmiz va bir-birimizning huquqlarimizga putur yetkazmasligimiz shart.

Xalqaro aktlarda ta'kidlanishicha ushbu huquqlarga hurmat bilan qarash umumiy tinchlikning asosi hisoblanadi. Bu huquqlarni himoya qilinishini ta'minlash uchun esa turli xil xalqaro hujjatlar qabul qilina boshlandi. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlarning boshqalardan farqli ravishda, o'ziga xos xususiyatlariga quyidagilar kiradi.

- universal tusga ega (ya'ni inson huquqlari va barcha asosiy erkinliklari hurmat qilinadi);
- umum qabul qilingan (ya'ni barcha davlatlarda rioya qilinadi);
- irqi, jinsi, dini, tili va boshqalardan qat'i nazar hammaga ta'sir qiladi;
- qonunlarda ushbu masala yuzasidan milliy modellarni ishlab chiqish uchun turtki bo'lib xizmat qiladi.⁵

Dunyo bo'yicha, xalqaro huquqda bizning inson sifatidagi huquqlarimizni himoya qilish uchun bir nechta asosiy manbalar mavjud. Deklaratsiya, ikkita Pakt va Fakultativ bayonnoma BMTning umumiy, huquqiy qamrov darajasi bo'yicha universal hujjatlaridir va ular Inson huquqlari Xartiyasini tashkil qiladi. Asosan, BMT nizomi va Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro Bill kiradi. Ushbu Bill 5 ta qismdan iborat:

- ✓ - 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi;
- ✓ - 1966-yilda qabul qilingan Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt;
- ✓ - 1966-yilda qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt;
- ✓ Yuqoridagi paktga doir 1966-yilda qabul qilingan, shikoyat qilish huquqini e'lon qilgan birinchi Fakultativ protokol;
- ✓ - 1989-yilda qabul qilingan, o'lim jazosini bekor qilishga qaratilgan ikkinchi Fakultativ protokol.⁶

⁴ Muhamedov H.M. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi (Yangi davr davlati va huquqi). Darslik. III qism. Oliy o'quv yurtlarining yurisprudensiya yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun darslik / Mas'ul muharrir : O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, yuridik fanlar doktori, professor A.X.Saidov. -T.: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2018. - 341 bet, 98-b

⁵ Kostetskiy, Vasiliy Davlat va huquq asoslari 10-sinf. O'rta umumta'lim muassasalarining 10-sinflari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun darslik/ V.Kostetskiy - Birinchi nashr. Toshkent : "Yangiyo'l poligraf servis" 2017-144bet

⁶ Inson huquqlari o'quv qo'llanma F.Yusupova TDYU nashriyoti, 2024. - 64 bet

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi esa ular orasida alohida o‘rin tutadi. Ushbu deklaratsiya 1948-yil 10-dekabrda, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining uchinchi sessiyasida 217 A (III) rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan va BMTga a‘zo barcha davlatlar uchun tavsiya qilingan. Deklaratsiya matni hamma odamlarga taalluqli huquqlarni global aniqlab bergan birinchi hujjatdir. U 30 moddadan iborat bo‘lib, qabul qilingandan so‘ng dunyoning eng ko‘p tillariga tarjima qilingan va 110dan ortiq davlatlarning konstitutsiyalarida deklaratsiya qoidalari o‘z aksini topgan. 1950-yilda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligi munosabati bilan BMT Inson huquqlari kunini belgiladi. U 10-dekabrda nishonlanadi. Deklaratsiyada qayd etilgan barcha huquqlarning asosida 1-moddada belgilab qo‘yilgan teng huquqiylik tamoyili yotadi. Ya‘ni "Hamma odamlar o‘z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo‘lib tug‘iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo‘lishlari kerak." (Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. 1-modda) Undan tashqari ushbu manbada bugungi kunda har bir inson ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ega bo‘lishi lozim bo‘lgan huquq va erkinliklarning minimal hajmi keltirilgan. Bunday huquqlarning eng muhimlaridan biri - bu yashash huquqidir. Ushbu huquq haqida deklaratsiyada shunday deyilgan, "Har bir inson yashash, erkin bo‘lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga egadir." (Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 3-modda)⁷Insonlar o‘z hayotida va shaxsiy faoliyatida turli xil tazyiq va majburlovlardan holi yashashi kerak. Mustaqil fikr yuritishi, daxlsizlik huquqidan foydalangan holda erkin harakatlanishi - bu shaxsning alohida ta‘kidlangan, eng muhim huquqlaridan biri hisoblanadi.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro Pakt huquqiy himoyaning samarali vositalari buzilgan holda, hatto ushbu buzilish rasmiy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan bo‘lsa ham, har qanday shaxsning huquq va erkinliklarini ta‘minlash davlatning majburiyati ekanligi belgilab qo‘yilgan. U qullikni, tobelik holatini, majburiy mehnatga qo‘yish va boshqalarni ta‘qiqlovchi qoidalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu Paktga ikkita bayonnoma qabul qilingan. Birinchisida davlatning Inson huquqlari bo‘yicha Qo‘mitasi tomonidan shaxsning huquq va erkinliklari buzilishida taxmin etilayotgan ishlar yuzasidan yakka tartibdagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish jarayoni bo‘lsa, ikkinchisi 1989-yilda o‘lim jazosini bekor qilishga qaratilgan.

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro Paktda adolatli va qulay mehnat sharoitini yaratish huquqi, ijtimoiy ta‘minot, ish vaqtini oqilona chegaralash kabi huquqlarni o‘z ichiga oladi. Ikkala Pakt ham 1976-yildan kuchga kirgan. Ushbu kelishuvda bu hujjatga imzo qo‘ygan har bir davlat uchun ularda belgilab qo‘yilgan huquq va erkinliklarga o‘z yurisdiksiyalari ostida bo‘lgan barcha shaxslarga nisbatan rioya etish va ushbu huquq erkinliklarni kelgusida ham rag‘batlantirish maqsadida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha aniq majburiyatlar belgilab qo‘yildi. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquqning asosiy tamoyillari: universallik va uzviylik, bo‘linmaslik o‘zaro bog‘liqlik va o‘zaro aloqadorlik, tenglik va kamsitmaslik, ishtirok va jalb etish hisobotdorlik va qonuniylik. Aynan inson

⁷ <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>

huquqlarini himoya qilish uchun Inson huquqlari bo'yicha komissiya tashkil etilgan.⁸ Uning tarkibiga umumiy 47ta davlat kirgan.

Masalan, Fakultativ bayonnoma alohida fuqarolarga huquqlari buzilayotganligidan BMT qoshidagi maslahat organi — Inson huquqlari bo'yicha qo'mitaga shikoyat qilish imkonini berdi. Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risida Yevropa konvensiyasi (1950-y.) o'z ichiga fuqarolik hamda siyosiy, shuningdek ba'zi ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarni olgan Konvensiyaga qo'shimcha bayonnomalarda Yevropa Kengashining yetakchi hujjatlariga aylandilar. Ularning amalga oshirilishini nazorat qilish uchun maxsus mexanizmlar — Yevropa komissiyasi va Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi ta'sis etildi. Komissiya va Sud fuqarolarning huquqlari buzilishi bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqadilar. Shikoyatning haqqoniyligi aniqlansa, Sud tomonidan har bir davlat bajarishi shart bo'lgan qaror chiqariladi.

Keyingi navbatda, inson huquqlarining himoya qilinishini dunyo davlatlari konstitutsiyasi misolida ko'rsak. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 10-bobi "Inson hamda fuqaroning huquq va erkinliklari kafolatlari" deb nomlanadi va o'z tarkibiga inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini qamrab oladi. Deylik aynan 54-moddada "Insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadidir. Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi" deb belgilab qo'yilgan. Undan tashqari Yangi O'zbekistonda inson huquq va erkinliklarini ta'minlaydigan milliy institutlar ham mavjud. O'zbekistonda inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar tizimi tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman), O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (biznes-ombudsman), Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi institutlari kiradi. Ular orasida har birining alohida o'rnini, burchlari va vazifalari mavjud. Bu organlar: inson huquqlarini xalqaro miqyosda, O'zbekiston hududida, bolalar huquqlarini, tadbirkorlar huquqini umuman olganda barcha insonlarning o'z huquqlari chegaralarini buzilmasligiga yordam berishadi.

Germaniya Federativ Respublikasining asosiy qonunida esa inson huquqlari eng birinchi modda sifatida o'rin olgan. "Insonning qadr-qimmatini daxlsizdir. Uni hurmat qilish va himoya qilish butun davlat hokimiyatining burchidir. Shunga ko'ra nemis xalqi insonning daxlsiz va unga tegishli huquqlarni har qanday bashariy hamjamiyatning, yer yuzida tinchlik va adolatning asosi deb e'tirof etiladi." deb qayd etilgan.⁹

Yaponiya konstitutsiyasining 13-moddasida yozilishicha "Butun xalq shaxs sifatida hurmat qilinadi. Yashash, erkinlik hamda farovonlikni talab qilishga nisbatan bo'lgan huquqlar ommaviy manfaatlarga zid bo'lmagan taqdirda qonunchilik va boshqa davlat siyosatida eng yuqori darajadagi hurmat qilinishni talab etadi".¹⁰

⁸ Xalqaro huquq darslik. Mas'ul muharrir y.f.n , prof G.Yuldasheva// mualliflar jamoasi, - TDYU nashriyoti, 2018- 450 bet

⁹ Germaniya Federativ Respublikasining Asosiy Qonuni. Mas'ul muharrir, ishga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi A.Saidov. -Toshkent , Akademnashr, 2019 -400bet

¹⁰ Huquq faniga kirish. O'quv qo'llanma. Makoto Ito, A.M.Xakimov, A.I.Umirdinov tarjimai - Toshkent: Lesson Press nashriyoti, 2019- 248 bet

Xulosa o'rnida, Xalqaro huquqda inson huquq va erkinliklarining kafolatlari bugungi globallashuv jarayonida nafaqat alohida davlatlarning ichki vazifasi, balki xalqaro hamjamiyatning umumiy majburiyatiga aylangan. Insonning tabiiy va ajralmas huquqlarini e'tirof etuvchi universal tamoyillar BMT Nizomi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, xalqaro Paktlar hamda ularning fakultativ protokollari orqali mustahkam huquqiy asosga ega bo'lib, davlatlarning ichki siyosati va xalqaro pozitsiyasini belgilab beruvchi mezon vazifasini bajaradi. Xalqaro sud organlari — jumladan, Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi, Xalqaro sud, Xalqaro jinoiy sud hamda mintaqaviy himoya institutlari — inson huquqlarini ta'minlashning protsessual kafolatlarini shakllantiradi va davlatlarning yurisdiksiyaviy javobgarligini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, ombudsman institutlari, gumanitar tashkilotlar, nohukumat sektor va fuqarolik jamiyati sub'yektlarining faolligi inson huquqlarining amaliy himoyasida muhim o'rin tutadi. Zamonaviy global muammolar — qurolli nizolar, migratsiya jarayonlari, kiberxavfsizlik tahdidlari, diskriminatsiya va genotsid xavflari — inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirishni talab qiladi. Shuning uchun davlatlar xalqaro shartnomaviy majburiyatlarni vijdonan bajarishi, "xalqaro Bill" hujjatlarida belgilangan standartlarga mos ichki qonunchilikni rivojlantirishi hamda federativ va unitar tuzilmadan qat'i nazar, har bir insonning qadr-qimmatini himoya qilishga qaratilgan tizimli siyosatni amalga oshirishi zarur.

Umuman olganda, inson huquq va erkinliklarining xalqaro kafolatlari — bu davlatlarning siyosiy irodasi, xalqaro institutlarning samaradorligi va huquqiy mexanizmlarning barqarorligi bilan mustahkamlanadigan ko'p bosqichli tizimdir. U mazmunan faqat normativ hujjatlar majmui bo'lib qolmay, balki global tinchlik, barqarorlik va demokratiyaning poydevoriga aylangan universal qiymatdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Inson huquqlari o'quv qo'llanma F.Yusupova TDYU nashriyoti, 2024. - 64 bet
2. Huquq faniga kirish. O'quv qo'llanma. Makoto Ito, A.M.Xakimov, A.I.Umirdinov tarjimai - Toshkent: Lesson Press nashriyoti, 2019- 248 bet
3. Germaniya Federativ Respublikasining Asosiy Qonuni. Mas'ul muharrir, ishga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi A.Saidov. -Toshkent , Akademnashr, 2019 -400bet
4. Xalqaro huquq darslik. Mas'ul muharrir y.f.n , prof G.Yuldasheva// mualliflar jamoasi, - TDYU nashriyoti, 2018- 450 bet
5. Kostetskiy, Vasiliy Davlat va huquq asoslari 10-sinf. O'rta umumta'lim muassasalarining 10-sinflari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun darslik/ V.Kostetskiy - Birinchi nashr. Toshkent : "Yangiyo'l poligraf servis" 2017-144bet
6. Davlat va huquq asoslari 10-sinf uchun darslik/ H.Tuychiyeva, A.Hakimov, O.Abdug'aniyev, O.Shernayev, M.Ahmedova. Toshkent. Respublika ta'lim markazi,2023-128 bet
<https://constitution.uz/oz/pages/humanrights/>
7. Muhamedov H.M. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi (Yangi davr davlati va huquqi). Darslik. III qism. Oliy o'quv yurtlarining yurisprudensiya yo'nalishi bo'yicha ta'lim

olayotgan talabalar uchun darslik / Mas'ul muharrir: O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, yuridik fanlar doktori, professor A.X.Saidov. -T.: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2018. - 341 bet

8. Germaniya Federativ Respublikasining Asosiy Qonuni. Mas'ul muharrir, ishga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi A.Saidov. -Toshkent, Akademnashr, 2019-400 bet

9. Huquq faniga kirish. O'quv qo'llanma. Makoto Ito, A.M.Xakimov, A.I.Umirdinov tarjimasi - Toshkent: Lesson Press nashriyoti, 2019- 248 bet